

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA MAJBURIY AVTOSUG‘URTANING MOLIYAVIY O‘RNI VA UNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Abdujabborov Islomiddin Asadillo o‘g‘li

Tashkent International University

“Iqtisodiyot va moliya” kafedrası

stajyor-o‘qituvchisi

E-mail: @islomiddinabdujabborov0202@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida majburiy avtosug‘urtaning moliyaviy o‘rni va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi. Tadqiqotda sug‘urta mukofotlari, to‘lovlar hajmi, polislar soni va tarif o‘zgarishlari asosida tizim samaradorligi baholandi. Statistik ma’lumotlar asosida avtopark kengayishi sug‘urta talabining oshishiga olib kelgani aniqlandi. Amaldagi tariflar va sug‘urta summasi o‘rtasidagi nomutanosibliklar aniqlanib, yangi tartib orqali ularning muvofiqlashtirilgani ko‘rsatildi. Raqamlashtirish jarayonlari sug‘urta xizmatlari tezligi va shaffofligini oshirgani qayd etildi. Tadqiqot natijasida majburiy avtosug‘urtaning ijtimoiy himoya va moliyaviy barqarorlikdagi roli asoslandi hamda uni kengaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: majburiy avtosug‘urta, sug‘urta bozori, avtofuqarolik javobgarligi, sug‘urta mukofotlari, tarif siyosati, raqamlashtirish, moliyaviy barqarorlik, risk boshqaruvi

Аннотация

В статье проанализирована финансовая роль обязательного автострахования в экономике Узбекистана и его тенденции развития. В исследовании оценена эффективность системы на основе показателей страховых премий, выплат, количества полисов и изменений тарифов. Статистический анализ показал, что рост автопарка привел к увеличению спроса на страховые услуги. Выявлены дисбалансы между страховыми суммами и тарифами, которые были скорректированы в новой системе регулирования. Отмечено, что цифровизация повысила скорость и прозрачность страховых услуг. По результатам исследования обоснована роль обязательного автострахования в обеспечении социальной защиты и финансовой устойчивости, а также предложены практические меры по его дальнейшему развитию.

Ключевые слова: обязательное автострахование, страховой рынок, гражданская ответственность, страховые премии, тарифная политика, цифровизация, финансовая устойчивость, управление рисками

Abstract

This article analyzed the financial role of compulsory motor insurance in the economy of Uzbekistan and its development trends. The study evaluated system efficiency based on insurance premiums, claims, number of policies, and tariff changes. Statistical evidence showed that the expansion of the vehicle fleet increased demand for insurance services. Imbalances between insurance coverage and tariffs were identified and addressed through recent regulatory reforms. Digitalization

improved the speed and transparency of insurance services. The findings demonstrated the role of compulsory motor insurance in ensuring social protection and financial stability and provided practical recommendations for further expansion of the system.

Keywords: compulsory motor insurance, insurance market, third-party liability, insurance premiums, tariff policy, digitalization, financial stability, risk management

KIRISH

Sugʻurta moliyaviy bozorning ajralmas tarkibiy qismi boʻlib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida sarmoyaviy resurslarni shakllantirish, fuqarolik masʻuliyatini moliyaviy taʻminlash va ijtimoiy himoya tartiblarini kuchaytirish vazifalarini bajaradi. Oʻzbekistonda sugʻurta sohasi soʻnggi besh yil ichida sezilarli oʻzgarishlarga uchradi: 2024-yil yakunlari boʻyicha yigʻilgan sugʻurta mukofotlari 9,77 trillion soʻmga yetdi va oʻtgan yilga nisbatan 21 foizga ortdi [1]. Bunday surʻatlar bozorning institutsional shakllanishi va tartibga solish tartiblari samaradorligining koʻrsatkichlari hisoblanadi.

Avtomobil parkining tezkor kengayishi natijasida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish (keyingi oʻrinlarda - TVEFJMS) yoʻnalishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2025-yil 1-iyul holatiga koʻra mamlakatda jismoniy shaxslarga tegishli 4 million 612,7 ming dona transport vositasi roʻyxatdan oʻtkazilgan boʻlib, bir yil mobaynida ushbu koʻrsatkich 441,5 ming donaga koʻpaydi [2]. Avtopark hajmining yuqori surʻatda oʻsishi masʻuliyat sugʻurtasiga boʻlgan talabni jiddiy ravishda kengaytirdi va tariflar tuzilmasini qayta koʻrib chiqishni taqozo qildi.

TVEFJMS tizimi 2008-yil 21-apreldagi Oʻzbekiston Respublikasining OʻRQ-155-sonli Qonuni asosida joriy etilgan boʻlib [3], yoʻl-transport hodisalari oqibatida uchinchi shaxslarning hayoti, sogʻligʻi va mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplashning huquqiy va moliyaviy tartibini taʻminlaydi. 2025-yil 23-iyuldagi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 458-sonli qarori bilan tasdiqlangan islohotlar 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirib, sugʻurta summasini 40 million soʻmdan 80 million soʻmgacha oshirdi va sugʻurta tariflarini aktuar hisob-kitoblar asosida bozor tamoyillariga muvofiqlashtirdi [4]. Tartibga solish hujjatlarining yangilanishi tizimning iqtisodiy chidamliligini mustahkamladi.

Ilmiy izlanishning maqsadi - Oʻzbekiston iqtisodiyotida majburiy avtosugʻurtaning moliyaviy oʻrnini amaliy koʻrsatkichlar asosida baholash va tizimni kengaytirish istiqbollari ilmiy nuqtai nazardan asoslashdan iborat. Maqsadga erishish doirasida bozor dinamikasi, qonunchilik tahriri va aktuar koʻrsatkichlar yaxlit holda oʻrganildi. Vazifalar sirasiga qonuniy bazani oʻrganish, miqdoriy koʻrsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish hamda institutsional rivojlanish yoʻnalishlarini aniqlash kiritildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sugʻurta munosabatlarining iqtisodiy mohiyati moliya nazariyasida xavf-xatarlarni jamoaviy taqsimlash usuli sifatida tushuntiriladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tahliliy materiallarida transport sugʻurtasi yoʻl harakati xavfsizligi va moliyaviy barqarorlik oʻrtasidagi bogʻlovchi boʻgʻin sifatida talqin etilib, sugʻurta qamrovining oshishi mamlakatning umumiy moliyaviy chuqurligi bilan bevosita bogʻliqligi qayd etiladi [9]. Markaziy Osiyo davlatlari sugʻurta tizimlarida

o'tish iqtisodiyoti sharoitiga xos bo'lgan past qamrov darajasi va barqaror o'sish sur'ati birgalikda kuzatilmoqda.

O'zbekiston bozoriga oid Azimov va hammualliflari sug'urta bozorining 2016-2022 yillardagi to'rt baravar o'sganini, sug'urta qamrovi koeffitsiyenti esa 0,34-0,7 foiz oralig'ida bo'lganini qayd etgan; tadqiqotda majburiy sug'urta sohalarining ulushi yetakchi pozitsiyada turishi haqida xulosa berilgan [8]. Statista tahliliy platformasi 2025-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston sug'urta bozori hajmini taxminan 3,82 milliard AQSh dollarida baholagan va 2025-2029 yillar oralig'ida o'rtacha yillik 3,48 foiz o'sish prognozini taqdim etgan [7]. Bu prognozlar bozorning uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini ko'rsatadi.

XPRIMM xalqaro tahliliy markazi 2024-yilning to'qqiz oyligida O'zbekiston sug'urta sektori 18,64 foizga o'sib, yig'ilgan mukofotlar 7,01 trillion so'mga yetganini xabar qildi va ixtiyoriy sug'urta turlari mukofotlarning 92 foizini tashkil etishini aniqladi [10]. Bunday tarkib majburiy sug'urtaning huquqiy va ijtimoiy ahamiyati katta bo'lgan o'rnini ham ifodalaydi, chunki majburiy turlarning aniq belgilangan tarif siyosati mavjud bo'lishi tartibga solish jarayonini barqaror saqlaydi.

Mavjud manbalarning aksariyati umumiy sug'urta bozorining makro ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadi, biroq majburiy avtosug'urtaning moliyaviy o'rnini va uni kengaytirish vositalari aniq raqamli ko'rsatkichlar asosida yaxlit tahlil qilinmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun maqolada bozor dinamikasi, qonunchilik tahriri va aktuar ko'rsatkichlar bir butun ko'rinishda o'rganildi va tarmoqning rivojlanish istiqbollari nazariy hamda amaliy jihatlardan asoslab berildi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda nazariy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Birlamchi manba sifatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy hisobotlari foydalanildi. Ikkilamchi manba sifatida Fitch Ratings, XPRIMM, Statista platformasi va xalqaro tadqiqot natijalari jalb etildi. Manbalarning ochiq elektron arxivlardan olinishi natijalarning takrorlanuvchanligini ta'minladi.

Bozorning miqdoriy ko'rsatkichlarini baholashda tarixiy taqqoslash usuli qo'llanildi: 2023-yilning Toshkent shahri bo'yicha ko'rsatkichlari va 2025-yilning birinchi to'qqiz oylik ma'lumotlari yonma-yon ko'rib chiqildi. Aktuar yondashuv asosida sug'urta summasi va mukofotning nisbati hisoblab chiqildi; eng yuqori to'lov chegarasi va o'rtacha mukofot orasidagi nisbat orqali tizimning moliyaviy chidamliligi baholandi.

Sifat tahlili davlat tomonidan tartibga solish vositalari, raqamli tuzilma elementlari va aktuar hisob-kitoblar asosida amalga oshirildi. Olingan natijalar talqini qiyosiy normativ-huquqiy tahlil orqali shakllantirildi va xalqaro amaliyot bilan solishtirib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

TVEFJMS tizimining huquqiy poydevori 2008-yilda qabul qilingan O'RQ-155-sonli Qonunda aniq belgilangan bo'lib, transport vositalari egalarining fuqarolik

javobgarligini majburiy ravishda sug'urtalash prinsipi joriy etilgan [3]. Tizim 2019-yilgi tahrirda sug'urta summasi 40 million so'm va yengil avtomobillar uchun yillik mukofot 56 ming so'm darajasida belgilanganidan keyin uzoq vaqt davomida o'zgartirilmadi [5]. O'tgan oltita yil ichida iste'mol narxlari ko'rsatkichi 160 foizga, eng kam ish haqi 265 foizga, bazaviy hisob-kitob qiymati esa 168 foizga oshdi [6]. Aktuar nuqtai nazardan amaldagi tariflar bozor sharoitlaridan jiddiy uzoqlashdi va sug'urtalovchilarning moliyaviy yukini oshirdi.

Bozor ko'lamining kengayishini sonli ko'rsatkichlar yaqqol ifodalaydi. 2023-yilda yolg'iz Toshkent shahrida 865 ming dona TVEFJMS polisi rasmiylashtirildi, 80,5 milliard so'm sug'urta mukofoti yig'ildi, 10,6 ming sug'urta hodisasi qayd etildi va 77,9 milliard so'm tovon to'landi [2]. 2025-yilning to'qqiz oyligida respublika bo'yicha 1,54 million dona TVEFJMS polisi rasmiylashtirilgan, 129,5 milliard so'm sug'urta mukofoti yig'ilgan va 12,5 ming sug'urta hodisasi bo'yicha 108,4 milliard so'm tovon to'langan [2]. Toshkent shahrida sug'urta to'lovlari koeffitsiyenti 146 foizga yetdi - har 100 so'm yig'ilgan mukofotga 146 so'm tovon to'lab berildi [14]. Bunday holat eski tariflar tuzilmasi yangilanishini iqtisodiy zaruratga aylantirdi.

1-jadval.

Eski va yangi TVEFJMS tarifining qiyosiy tahlili[4],[14]

Ko'rsatkich	Eski tartib (2025-yilgacha)	Yangi tartib (2026-yildan)	Manba
Eng yuqori sug'urta to'lovi (sug'urta summasi)	40 mln so'm	80 mln so'm	[4]
Yengil avtomobil polisi (Toshkent, cheklangan)	56 ming so'm	192 ming so'm	[14]
Yengil avtomobil polisi (boshqa hududlar, cheklangan)	40 ming so'm	160 ming so'm	[14]
Yengil avtomobil VIP-polis (Toshkent, cheklanmagan)	96 ming so'm	384 ming so'm	[14]
Mol-mulk zarari uchun limit	alohida ajratilmagan	28 mln so'm	[4]
Sog'liqqa zarar uchun limit	alohida ajratilmagan	52 mln so'm	[4]

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlardan ko'rinadiki, yangi tartibning eng muhim xususiyati sug'urta summasini ikki baravar oshirish hamda mol-mulk va sog'liqqa zarar bo'yicha alohida chegaralar joriy qilish bo'ldi. Tarifning to'rt baravar oshirilishi sug'urta tashkilotlarining moliyaviy zaxiralarini mustahkamlaydi va to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi. Yangi tartibga ko'ra Toshkent shahri va viloyatida yengil avtomobillar uchun haydovchilar soni cheklangan polis narxi 192 ming so'm, cheklanmagan polis 384 ming so'm, respublikaning boshqa hududlarida tegishli ko'rsatkichlar 160 ming so'm va 320 ming so'mga teng [14]. Sug'urta puli tarkibida 28 million so'm mol-mulk zarariga, 52 million so'm sog'liqqa yetkazilgan zararga yo'naltirilgan.

2026-yil 1-apreldan ishga tushadigan Yagona sug'urta billing tizimi sug'urtalovchilar va davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvini elektron ko'rinishda yo'lga qo'yadi [13]. 2024-yil sentabridan boshlab barcha polislar

elektron shaklda chiqarila boshlangani rasmiylashtirish jarayonini tezlashtirdi va shaffoflikni oshirdi [11]. Raqamli tuzilmaning yaxlit shakllantirilishi sugʻurta xizmatlarining qulay yetkazib berilishini taʼminlaydi va bozor xizmatlari sifatini yaxshilaydi.

Bozorda sugʻurta xizmatlari yirik tashkilotlar atrofida toʻplangan: 2024-yilda mamlakat sugʻurtalovchilari jami 143 709 ta arizani koʻrib chiqdi va 132 629 tasi boʻyicha toʻlov amalga oshirildi, yaʼni umumiy qoniqtirilish darajasi 92,3 foizni tashkil etdi [12]. Yetakchi sugʻurtalovchilar boʻyicha toʻlovlar darajasi yuqoriroq koʻrsatkichlarga yetdi va xizmatlar sifatining yuqoriligi sektorga ishonchni mustahkamladi.

Tahlil natijasida quyidagi muhim qonuniyatlar aniqlandi: birinchidan, avtopark hajmi va sugʻurta polislari soni oʻrtasida mutanosib bogʻliqlik mavjud; ikkinchidan, sugʻurta toʻlovlarining oshishi avtomobil ehtiyot qismlari narxi va taʼmirlash xizmatlari qiymati bilan bevosita bogʻliq; uchinchidan, raqamli platformalarning kiritilishi xarajat samaradorligini va xizmat qulayligini oshiradi; toʻrtinchidan, aktuar hisob-kitoblarning vaqti-vaqti bilan yangilanishi tizimning moliyaviy barqarorligini taʼminlovchi asosiy omildir. Mazmunan TVEFJMS tizimi makroiqtisodiy koʻrsatkichlar bilan dinamik bogʻliqlikda rivojlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻzbekiston iqtisodiyotida majburiy avtosugʻurta tizimi shunchaki huquqiy zaruriyat emas, balki moliyaviy bozorning rivojlanish koʻrsatkichi va ijtimoiy himoyaning samarali vositasi sifatida shakllanmoqda. 2026-yildan amalga oshirilgan tarif va sugʻurta summasini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish jarayoni tizimning aktuar chidamliligini mustahkamladi va sugʻurtalovchilar bilan polis egalari manfaatlarini muvozanatini taʼminladi. Yangi tartibning hisob-kitob asosi inflyatsiya, taʼmirlash xarajatlari dinamikasi va eng kam ish haqi koʻrsatkichlarining haqiqiy oʻzgarishini hisobga oldi.

Mamlakatda majburiy avtosugʻurtaning kengayishi quyidagi yoʻnalishlarda davom etishi maqsadga muvofiq deb topildi: birinchidan, aktuar hisob-kitoblarni har uch yilda qayta koʻrib chiqish va sugʻurta summasini iqtisodiy koʻrsatkichlarning real dinamikasiga moslashtirish; ikkinchidan, Yagona sugʻurta billing tizimi imkoniyatlaridan foydalanib, transport vositalarining elektron kuzatuv va xulq-atvor asosidagi tariflarni bosqichma-bosqich joriy qilish; uchinchidan, milliy qayta sugʻurta kompaniyasi vositasida chegaralararo va katta hajmdagi xavflarni qoplash tartibini mustahkamlash [15]; toʻrtinchidan, taʼlim va keng ommani xabardor qilish dasturlari orqali sugʻurta savodxonligini oshirish; beshinchidan, raqamli kanal va mobil ilovalar yordamida sugʻurta xizmatlarining hududiy yetib borishini kengaytirish.

Bunday uzoq muddatli yondashuv Oʻzbekistonning sugʻurta bozorini Markaziy Osiyo mintaqasidagi yetakchi pozitsiyalarga olib chiqishga hissa qoʻshadi va moliyaviy barqarorlik bilan ijtimoiy himoyaning birgalikda mustahkamlanishini taʼminlaydi. Majburiy avtosugʻurta sohasidagi raqamli yangilanish, aktuar yondashuv va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayoni mamlakat moliyaviy tuzilmasining sifat jihatdan yangi bosqichga oʻtishini tezlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Uzbekistan's insurance sector's premiums climb 21%. Business Insurance, 18 April 2025. URL: <https://www.businessinsurance.com/uzbekistans-insurance-sectors-premiums-climb-21/>
2. New OSAGO Tariffs from 2026 in Uzbekistan: What Changes for Drivers. EUROASIA Insurance, 25 November 2025. URL: <https://eai.uz/en/articles/novye-tarify-osago-2026-cho-izmenyaetsya>
3. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 21-aprel O'RQ-155-son "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-1342474>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-iyundagi 141-son "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-1366339>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-martdagi 222-sonli "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://www.lex.uz/docs/-4243955>
6. O'zbekistonda majburiy avtosug'urta tariflarini ikki baravarga oshirish taklif qilindi. Spot.uz, 14 oktyabr 2024. URL: <https://www.spot.uz/oz/2024/10/14/auto-insurance/>
7. Insurances - Uzbekistan. Statista Market Forecast, 2025. URL: <https://www.statista.com/outlook/fmo/insurances/uzbekistan>
8. Azimov R. S. et al. Current State of the Insurance Market in Uzbekistan // International Journal on Recent and Innovation Trends in Computing and Communication. - 2023. - Vol. 11, № 9. - P. 5058–5062. URL: <https://ijritcc.org/index.php/ijritcc/article/view/10168>
9. OECD Insurance Statistics: Insurance Markets in Figures. URL: <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/insurance.html>
10. STATISTICS: UZBEKISTAN, 3Q2024: 92% of all market premiums come from voluntary insurance. XPRIMM, 9 December 2024. URL: <https://www.xprimm.com/STATISTICS--UZBEKISTAN-3Q2024-92-of-all-market-premiums-come-from-voluntary-insurance-articol-35-22518.htm>
11. Insurance in Uzbekistan: A Complete Guide to Types and Opportunities in 2025. EUROASIA Insurance, 14 August 2025. URL: <https://eai.uz/en/articles/insurance-guide-uzbekistan-2025>
12. Every Fourth Insurance Claim in Uzbekistan Settled by GROSS. GROSS Insurance, 2025. URL: https://gross.uz/en/press_center/news/161
13. O'zbekistonda majburiy avtosug'urta polisi bir necha barobar qimmatlashadi. Gazeta.uz, 25 iyul 2025. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/07/25/insurance/>
14. O'zbekistonda OSAGO sug'urta narxlari keskin oshdi. Kursiv Uzbekistan, 6 yanvar 2026. URL: <https://uz.kursiv.media/uz/2026-01-06/uzbekistonda-osago-sugurta-narxlari-keskin-oshdi/>

15. O‘zbekistonda majburiy avtosug‘urta summasi ikki baravar oshiriladi. Daryo, 24 iyul 2025. URL: <https://daryo.uz/2025/07/24/ozbekistonda-majburiy-avtosugurta-summasi-ikki-baravar-oshiriladi>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**